

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION
SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2024

3-son
(May-Iyun)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

Umida USMONOVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
o'qituvchisi

NASRIY ASARLARNI “BLUM TAKSONOMIYASI” METODI ASOSIDA TAHLIL QILISH (Abdulhamid Sulaymon Cho'iponning “Kecha va kunduz” romani misolida)

Annotatsiya

Maqolada “Blum taksonomiyasi” adabiyot darslarida badiiy matnning qismlarga ajratib o'rganish, dalillarga asoslanib mulohaza yuritish, talqin qilish, qiyoslash, tasavvur qila olish, matnning to'laqonli tushunish va matnning ma'nolarini tahlil qilish, fikrlarni birlashtira olish, shaxsiy munosabatni bildirish, yangi g'oyalar yaratish kabi ko'nikmalarni rivojlantiruvchi samarali metodlardan biri ekanligi yoritib beriladi; “Blum taksonomiyasi” metodidan foydalanish jarayoni “Kecha va kunduz” romani tahliliga qaratilgan savol-topshiriqlar asosida tushuntiriladi.

Tayanch so'zlar. “Blum taksonomiyasi”, bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, baholash, yaratish, “Kecha va kunduz”, o'qib tushunish, tanqidiy tafakkur, kreativlik.

В статье таксономия Блюма освещены основные методы литературного образования, формирующие у учащихся такие умения, как изучение художественного текста по частям, рассуждение на основе фактов, интерпретация, сравнение, воображение, полноценное понимание текста и анализ смыслов под текстом, умение объединять мысли, выражать личностное отношение, генерировать новые идеи. В статье также объясняется, какие вопросы и задания можно использовать при использовании метода таксономии Блюма в литературном образовании, в романе “День и ночь”.

Ключевые слова. “Таксономия Блюма”, знание, понимание, применение, анализ, оценка, создание, “День и ночь”, понимание прочитанного, критическое мышление, креативность

The article highlights the basic techniques of “Bloom taxonomy” in literary education that shape students' skills such as piecemeal study of artistic text, evidence-based reasoning, interpretation, comparison, imagination, full-fledged understanding of text and analysis of textual meanings, ability to combine thoughts, express personal attitudes, be able to create new ideas. The article also explains through the novel “Night and Day” what questions and assignments can be used when applying the method of “Bloom taxonomy” in literary education

Key words. Bloom's taxonomy, remembering, understanding, applying, analyzing, evaluating, creating, “Night and Day”, reading comprehension, critical thinking, creativity.

Ta'lim sifatini oshirish mamalakatni har jihatdan rivojlantirishning asosiy yo'llaridan biri. To'g'ri va mantiqli fikr yuritish oluvchi, puxta bilimli kadrlar aholi farovonligi darajasini o'stiruvchi qudratdir, shu boisdan “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”¹ farmon qabul qilindi. Farmon barcha umumta'lim fanlar, jumladan, adabiyot darslarida ta'lim mazmunini yangilash, o'qitish samardorligini oshirishni talab qiladi. Adabiy ta'lim sifatini yaxshilash jahon standartlariga mos o'quv dasturlari, darsliklarni yaratish, sinfxonalarni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlashni talab etadi. Ush-

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori. – T., 2019

bu talablar amalga oshirilgan taqdirda ham o'qituvchi mahoratli bo'lmasa, ta'lim sifati yaxshilanmaydi. Shu boisdan o'qituvchi o'z ustida muntazam ishlashi, zamonaviy ta'lim metodlaridan samarali foydalanishni o'rganib borishi lozim. “Blum taksonomiyasi” ta'limi rivojlangan mamlakat pedagoglarining asosiy metodlaridan biriga aylangan. “Britaniya ta'lim muassasalarida o'quvchilarni ijodkorlik, faollik, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan turli xil zamonaviy metodlardan foydalaniladi. Mana shunday rivojlangan metodlardan biri “Blum taksonomiyasidir”².

Taksonomiya so'ziga izohli lug'atda shunday ta'rif berilgan: “Taksonomiya (yun. taxis – tartib bilan o'lcayman, nomos – qonun) butun borliqning murakkab, odatda, iyerarxik tuzilmali sohalarini tasniflash va tartibga solish nazariyasi, shu haqidagi fan”. Badiiy asar borliqning aksi, adabiyot o'quvchini to'g'ri, sog'lom, tizimli fikr yuritishga o'rgatishi kerak, shunday ekan, “Blum taksonomiyasi” metodi adabiy ta'lim uchun aynan mos. “Blum taksonomiyasi” – talabalarni faktlarni eslab qolishdan tortib, olingan bilimlar asosida yangi g'oyalar yaratishgacha bo'lgan o'rganish bosqichlarini taklif etuvchi metod. U olti bosqichda amalga oshiriladi. O'quvchining kerakli ma'lumotlar bilan tanishganligini tekshirish, xotiraga qaratilgan savol-topshiriqlar berish metodning birinchi bosqichi hisoblanadi. Afsuski, aksar holda adabiyot darslari “Blum taksonomiyasi” ning birinchi bosqichi darajasida o'tiladi, dars mazmuni badiiy asarni qayta bayon qilib berishdan iborat bo'lib qoladi, ya'ni o'quvchi xotirasi mustahkamlanadi.

Bu jarayonda o'quvchi asardan olingan tugal xulosalarga tayanishi lozim. Shunday ekan, yaratish bosqichi dars xulosasi o'laroq uyga vazifa sifatida berilishi adabiy ta'lim uchun to'g'ri tanlov.

Quyida “Kecha va kunduz” romanini o'qitish uchun “Blum taksonomiyasi” metodi asosida tuzilgan savol va topshiriqlarni ko'rib chiqamiz.

I. Bilish bosqichi. O'rganishning bu bosqichi asosiy faktlarni, sanalarni, voqealarni, shaxslarni, joylarni, tushunchalarni bilishdan iborat. “Bu bosqichning asosiy xususiyatlari:

- kim? nima? qachon? qayerda? qaysi? nega? singari faktual savollarga javob bera olish;

- nomini aytish, ajratib olish, topish, moslashtirish, ro'yxatini tuzish, qayta so'zlab berish, tasvirlash singari amallarni bajara olish”. Bu bosqichda asarni o'qilganligi, asar yuzasidan kerakli ma'lumotlarga ega bo'linganligini tekshirish bilan bir qatorda asarni tushunish va tahlil qilishga xizmat qiluvchi muhim nuqtalarga e'tibor qaratish lozim.

- roman zamoniga xos tasvirlarni ayting.

- Asarda uchraydigan makonlar va unga bog'liq obrazlarning paydo bo'lish ketma-ketligini sanang.

- asardagi dramatik vaziyatlarni ajrating va qayta so'zlang.

- matndan e'tiboringizni tortgan til yoki tuzilishga oid qismlarni ayting. (Cho'lpon tili, syujetdagi to'satdanlik, ortga qaytishlar haqida gapirish mumkin).

- nima uchun so'rog'i bilan boshlanuvchi faktual javob talab etuvchi savollar tuzing. (Nima uchun Razzoq so'fi to'yga rozi bo'ldi?)

II. Tushunish bosqichida o'quvchi asarni tushunishi, tushuntira olishi kerak. O'qib tushunishga oid savol va topshiriqlar obraz xarakter xususiyatini, syujetni, muammoning sabablarini, makon, zamon, obraz nega bunday tasvirlanganini, voqealar kitobxonga nega bunday uslubda taqdim etilganligini tushunishga qaratiladi. Bu bosqichda o'quvc-

² Mirzayeva Z. O'quvchilarning ehtiyojini hisobga olish adabiy ta'lim taraqqiyotining muhim faktori sifatida. // Xalq ta'limi – 2019. 4-son

hi matnni qismlarga ajratib o'rganishi, fikrlari uchun kerakli dalillarga ega bo'lishi lozim.

1. Voqealarni, dialog, monologlarni birma-bir ko'zdan kechiring. Muhim voqealar ro'y bergan matnlarni ajrating. Bu matnda nima sodir bo'layotgani, nima uchun muhimligi, nozik taraflari, so'z tanlash, fikr tartiblanishi butun ma'nosiga ta'sirini tushuntiring³.

Matn	Tushuntirish
<i>Xadichaxon: "Buningiz amaldor bo'lgandan keyin aynidi. Mingboshilik yomon hovliqtirdi. O'z qishlog'ini tashlab, bu yerga ko'chdi. Bu katta hovlini sotib oldi. Mana bu katta imoratlarni soldirdi. Bog'-rog' qildi, yersuv ko'paytirdi. Ko'ngli boshqa savdolarga, o'zga ko'ylarga tushdi ... Bola ham ko'ziga ko'rinmadi, xotin ham. Yoniga "haybarakallachilar" kirishdi. Xotin topadigan, maslahat beradiganlar ko'payishdi. Bir haftaning ichida to'y qilib, mening ustimga sizni keltirib qo'ydi..."</i> (Kecha va kunduz", 49)	<i>Romandagi erkakalarning amal, pul uchun iymonidan uzoqlashgani, o'zligini yo'qotganiga ishora qiladi. Yana bu yerda juda muhim fikr bor: o'zbek millati bironing ta'siriga beriladi, mustaqillik, o'z fikriga egalik, qat'iyatlilik kam. Ayni shu paytda Akbarali Miryoqub ta'siriga tushdi. Akbarali Xadichaning ta'rifi qaranganda, yaxshi inson edi, ammo u ta'sir tufayli o'zgardi. Keyingi voqealarda Miryoqub unga uylanishni taklif qildi, ishratxonaga olib bordi. Bu tasvir o'zbekning tez yot ta'siriga berilishiga ishora. Razzoq ham shunday, Miryoqub ham shunday. Miryoqub Sharafiddin gaplaridan so'ng tezlikda fikrini o'zgartirib Mariyaga uylandi. Zebining ham qarshilik ko'rsatishiga ta'sir etuvchi omillari: Umrinisabibi, Bahri, Enaxonsiz qolgach, otasonasi, ovsinlar ta'siri haqida so'z yuritiladi. Demak, "haybarakallachilar" ta'siriga tushish o'zbekning muammosi.</i>

Muammolarni tushunish uchun quyidagi ko'rinishdagi savollarni berish mumkin.:

– Obraz xohishi, maqsadlariga erishishida to'siq(lar) bormi? Bu qanday to'siq? Nima sababdan to'siq bor? To'siq obrazning o'zidami yoki tashqarida?

Obrazilarni qiyoslash orqali obrazlarning harakatlari sabablarini, ruhiyatini tushunish mumkin.

Razzoq so'fi va Akbralini quyidagi savollar orqali qiyoslash mumkin.

– Ular dastlab qayerda yashar edi? Makon almashgach, ularning hayotida qanday o'zgarish bo'ldi?

– Ular kimlarning hisobiga kun ko'radi?

– Ularning oilasiga munosabati qanday?

– Ular o'tkir mulohazalarga ega, mulohazalar qanday vaziyatda yuzaga chiqdi?

– Nega aynan shu vaziyatda ular mulohaza qila boshladi? Nima uchun avval mulohaza qilishmadi? Bu ularga foydali bo'lar edimi yoki zararli?

– Ularni umumlashtiruvchi jihat nima?

– Qiyos orqali avval anglamagan qanday yashirin ma'noni aniqladingiz?

Quyidagi obrazlarni tahlil qilish asarni tushunish uchun foyda beradi.

³ Qarang. Literary Analysis Guide. Goshen Collegw.// <https://www.goshen.edu/academics/english/literary-analysis-guide/>

1. <i>Saltanat, Poshsha.</i>	<i>Mariya, noibning xotini</i>
2. <i>Razzoqning yashash tarzi.</i>	<i>Akbaralining yashash tarzi</i>
3. <i>Qurvonbibi, O'lmas, Xolmat, dehqonlar.</i>	<i>Mingboshi, Razzoq, Zunnun, eshon, boy-lar.</i>
4. <i>Sadri cho'loq.</i>	<i>Razzoq so'fi.</i>
5. <i>Hakimjon voqeasi (Miryoyub v.).</i>	<i>Zunnun voqeasi.</i>
6. <i>Akbarali (xiyonat voqeasi).</i>	<i>Noib (xiyonat voqeasi).</i>
7. <i>Umrinisabibi (harakatlari).</i>	<i>Qosim laylak, Razzoqning akasi.</i>
8. <i>Hasan abziy (gaplari).</i>	<i>Sharafiddin (gaplari).</i>
9. <i>Qishloq imomi.</i>	<i>Shahar imom.</i>
10. <i>Akbarali (o'ylari).</i>	<i>Miryoyub (o'ylari).</i>
11. <i>Maryam (o'ylari).</i>	<i>Jakob (o'ylari).</i>

Obrazlarni quyidagi tartibda qiyoslash vaziyatlarning sabablari va natijasini tushuntiradi.

<i>O'xshashlik va farq</i>	<i>Zunnun</i>	<i>Hakimjon</i>
<i>Ko'rinishi</i>		
<i>Afzallik</i>		
<i>Kamchilik</i>		
<i>O'z hayotiga ta'siri</i>		
<i>Xulosa</i>		

Bu bosqichda amalga oshirilishi lozim bo'lgan eng muhim ish matnini jumlama-jumla tushunib borishdir.

– “Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kuldi, o'zlari horg'in-horg'in oqsalarda, bo'shalgan qul singari erkinlik nash'asini kemira-kemira ilgari bosadilar”⁴. Siyosiy kontekst bilan tanishning va savollarga javob bering. Bo'shalgan suv singari erkinlik nash'asini kemirish tasviri orqali muz, suv, suvning g'amli yuzlari, loyqalanishi nima(lar) yoki kim(lar)ning ramzi bo'lib kelganligini tushuntiring?

– “Erkaklarning gullik do'ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro'mol popuklari bilan hazillashib o'ynagan salqin shabada...” Davrning madaniy va siyosiy holatidan kelib chiqib savollarga javob bering. Nima uchun erkaklar gulli do'ppi bilan tasvirlangan? Qulga o'xshatilgan suv, erkinlikni ramzi bo'la oladigan shabadaning erkaklar emas, ayollar atrofida esishi tasvirlaridan kelib chiqib, erkaklarning gulli do'ppisi tasvirdagi kinoyani tushuntiring.

Ma'lumotlarni integratsiya qilish orqali xulosa chiqarish, oqibatlarining sabablarini aniqlashga qaratilgan savollar tuzish maqsadga muvofiq. Savol tuzishda e'tibor berish kerakki, savollarning javoblari shaxsiy fikrni talab etmasligi, xulosalar matndan topilgan aniq javoblar orqali chiqarilishi, shuningdek, savollar asosiy g'oyalarni aniqlashga emas, qismlarni tushunishga qaratilishi kerak.

– Poshshaxon Zebini zaharlashga tayyorlanganda unga nisbatan fikrining o'zgarishi, keyinchalik kasal bo'lib yotib qolishi inson ruhiyati haqidagi qanday haqiqatlarni tushuntiradi?

⁴ Kecha va kunduz. Roman. Birinchi kitob. /Asr oshgan asarlar turkumi// Tahrir ha'yati: Bobur Alimov va boshq./ - T.: Sharq, 2004.- 5 b.

– Miryoqub ichki sudidan keyin fohishani qutqarishga urinishi bizga u haqidagi qanday ma'lumotni bermoqda?

– Romandagi ayollarning umumiy jihatlarini ko'rib chiqish orqali ayollarning hiylakor va xiyonatkor ekanligi sabablarini tushuntiring.

– Akbaralining farzandsizlikdan qiynalishi tasvirlangan o'rin kitobxonga nimani tushunishi uchun xizmat qiladi?

III. Qo'llash bosqichida o'rganilgan ma'lumotlar yangi kontekst va vaziyatlarda qo'llab ko'riladi. Bu bosqich asarda ko'tarilgan mavzular doirasidagi muammolarning sababi nimada ekanligini aniqlashga, obrazlar ruhiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi.

– Akbarali Miryoqub hayotiga hech qachon kirib kelmadi? Nima o'zgaradi?

– Razzoq so'fining puli ko'p bo'lganida eshonga munosabati qanday bo'lardi?

– Tasavvur qiling, Akbarali ayollari bilan, Razzoq Qurvonbibi va Zebi bilan juda yaxshi munosabatda. Nima o'zgaradi?

– Tasavvur qiling, Poshshaxon ilmi ayol. Shunday bo'lsa, u asarda qanday harakat qilardi?

– Gimnaziyani ham tugata olmagan, Arsiboyevning kitoblarini o'qib, kechasi har uchratganni sevgilim uchradi, deb yurgan rus ayoli Miryoqubning o'g'lini tarbiya qildi. Tasavvur qiling, o'n yildan keyin Miryoqubning o'g'li qanday hayot kechiradi?

– Mamaturdi boy bo'lganida voqealar qanday kechar edi?

– Sudda imom Zebini oqlashga harakat qilganda qanday holat yuz berardi?

– Zebi turmushga chiqishga qarshilik ko'rsatganida, masalan, uyidan qochib ketsa, uning ahvoli qanday kechardi? Saltanat yoki Poshshaxon mingboshi, oilasiga qarshi chiqib, mingboshi uyidan ketib qolganida ular qanday holatda yashardi?

IV. Tahlil bosqichida asar asosiy nuqtayi nazarni aniqlashga qaratilgan savol-topshiriqlar beriladi. Matnda ochiq aytilmagan fikrni aniqlash, shaxsiy tajribalarga tayanib fikr yuritish, matnni matndan tashqari ma'lumotlar bilan integratsiya qilish asosida xulosalar chiqarishga qaratilgan savollar berish mumkin. Shuningdek, asar qismlarni strukturaga qanday mos kelishini tekshirish (syujet liniyalari va ularni siljituvchi shaxslarni aniqlash, kompozitsiya elementlarining umumiy g'oyani ifodalashdagi ahamiyatini tushunish kabi), muhim qismlarni ahamiyatsiz qismlardan ajratish (bosh va yordamchi obrazlarni ajratish, asosiy va ikkilamchi g'oyalarni aniqlash kabi) ishlar amalga oshiriladi.

– Roman boshida qayta-qayta go'zal bahor takrorlanishi haqida so'z yuritiladi. Sizningcha, Miryoqub, Akbarali, Razzoq qilmishlarining bunga aloqasi bormi?

– Akbarali bilan qarama-qarshi qo'yilgan Abdisamat nima uchun asarda jismonan qatnashmaydi? Uning ko'pxotinligiga jadidlarning ko'z yumishi, ammo Akbaralining ko'pxotinligiga e'tibor qaratishi haqidagi tasvirdan nimani anglash mumkin?

– Mariyaning o'tmishi, islavatxonada pul topish maqsadida ixtiyoriy turishi va jadidning Miryoqubga Mariyaga o'g'lini topshirishni maslahat qilishida qanday kinoya bor? Zunnunning 12-13 yoshlaridan ruslar qo'lida tarbiya topishi va uning qilmishlari Finlandiyada 5 sinfdan o'qiyotgan bola, Mariyaga topshirilayotgan farzand kelajagi haqida nimalarni oshkor qiladi? Noib xotining xiyonati asarga nima uchun kerak?

– “Sizning dushmaningizni aytayotganim yo'q, dodho afandi. Turk-islom xalqining dushmanlarini aytaman ...” “Sizning” so'zi kimlarga ishora qilmoqda? Nemislar ularning qanday manfaatlariga zarar yetkazadi? Akbaralining oilasi, Miryoqub, abziyning so'zlari haqidagi haqli mushohadalari va ustidan kim shikoyat qilganligi ochiq-oydin turgan holatda ham fahmlay olmasligi kabi tasvirlar Akbarali obrazining puxta ishlanmaganligidan

dalolat beradimi yoki Cho'lponga vaqti kelganda ishlab, vaqti kelganda ishlamay qoladigan aql-u farosatga ega akbaralilar kerak edimi? Nima uchun? Akbarali haqiqatan Miryoqubga ko'ra odamroq. Fikrni dalillang.

– Sizningcha, nima uchun Miryoqubning imperiyaning olishdek "ezgu" maqsadi zino-ga, millatni qutqarishdek "xayrli" niyati ajrimni o'ylashiga olib keldi? Quyidagi ikki fikrdagi qarama-qarshilikni aniqlang va romanning umumiy mazmuniga aloqasini tushuntiring: "Agar jadidlarning asosi puch bo'lsa, "Xalifayi Rum" jadidlarga tarafdor bo'larmidi? Hamma tartib-nizom o'sha tomonda deydi-ku. Yangicha o'qish Rumdan kelgan... kalta kiyim Rumdan chiqqan... Rumcha yoqalar o'sha tomondan kelib rasm bo'lgan..."

– Cho'lpun asardagi o'zbek ayollariga bag'rikenglik bilan yondashgan. Fitnalik bar-cha ayollarga xos va muhit bu illatni ularning qoniga singdirgan. Ushbu fikrlarni asos-lashga harakat qiling.

– Razzoq so'fi qizini mingboshiga berganini eshitgan qo'shnilarning unga xusho-mad qilishi orqali xalq ahvoli, ruhiyati haqida nimalarni anglash mumkin? Syujetga de-yarli ta'sir qilmagan Xolmatga alohida tavsif berilishi nima uchun xizmat qiladi? O'lmas-ning Xolmatga o'xshash jihati nimada? Bu asarga nima uchun kerak?

– O'ta dindor so'fi nomini olgan Razzoqning boshga kelgan kulfatga sabr qilmay qotillik qilishi, pul o'g'rilashi bachchabozlik qiluvchi, vaqf yerlaridan foydalanuvchi, birov-ning hisobiga yashovchi din peshvolarining umumiy qiyofasini yaratishdagi bir vositami yoki bundan boshqa maqsad ko'zlanganmi?

– Miryoqub nima uchun Zunnunni ko'rgandan so'ng o'zini taftish qilishni boshladi? Ayni shu voqeadan Cho'lpun nimani maqsad qilgan?

– Razzoqning oilaviy munosabatlari, Akbarali xotinlarining bir-biriga dushmanligi yuzasidan qanday fikr bildirish mumkin?

– Boylar aybsiz qishloqdoshlarini qamoqqa oldirishi, Akbaralini ishdan bo'shatishi nima haqida gapiradi?

– Ayollarning xarob ahvoli, Zebining erta turmushi, suddagi ayanch holati nimadan darak beradi?

– Xalqning ilmsizligi oqibatlari orqali qanday xulosa chiqarish mumkin?

– Zebi ramziy obraz sifatida asarning bosh qahramoniga aylanadi va millatimiz uchun makon va zamontanlamas holga keladi. Nima uchun? Fikrni tushuntiring.

V. Baholash bosqichida o'quvchi aniqlangan muammo va g'oyalarni o'z hayoti, jamiyat, umumbashar bilan bog'lab xulosa chiqaradi. G'oyalarning ahamiyatini, mu-ammoning inson hayotiga ta'sirini baholaydi; obrazlarni o'zi va atrofidagi insonlar bilan taqqoslash asosida o'zi va atrofdagilarining xarakter xususiyatlari shakllanish sababla-rini tushunadi, harakatlari va ruhiyatini tahlil eta oladi.

– Bugungi kun Miryoqub va Akbaralilari kimlar? Ular xalqimizga qanday zarar kel-tirmoqda?

– Razzoq so'fi kabi dinga ko'r-ko'rona ergashuvchilarni va eshon kabi riyokor din-dorlarni bugungi kundagi kimlarga qiyoslash mumkin?

– Gender tenglik masalasi yuzasida asardagi ayollar va atrofingizdagi ayollarni qiyoslang. Gender tenglikning ta'minlanishi mamlakat rivojlanishida qanchalik ahami-yatli?

– O'ylab ko'ring, siz ko'proq asarning qaysi obraziga o'xshaysiz? Zebigami yoki Miryoqubga? Jamiyatimizda Zebiga o'xshash insonlar ko'pmi? Bugungi kunda ularning "kar va soqov" ekanligiga sabablar nimada?

– O'zbek xalqining asarda tasvirlangan qaysi illatlari bugungi kunda ham mamlaka-

timiz rivojiga to'siq bo'lmoqda? Qanday va qay darajada?

VI. Yaratish bosqichi o'quv jarayonining eng murakkab bosqichi bo'lib, bunda o'quvchilar yechimlarni taklif etadi, fikrlari asosida yangi narsa kashf etadi. Ular gipotezalar ishlab chiqadi, rejalashtiradi va yaratadi⁵.

– Zebi, Razzoq so'fi, Akbarali, Poshshaxon, eshon, imomlar, boylar, Miryoqubga aylanmaslik uchun, shaxsiy rivojlanish rejangizni ishlab chiqing. Rejangiz har kuni o'zingizni kamol toptirib borishga qaratilgan topshiriqlardan iborat bo'lsin. Topshiriqlar ikki mazmunga qaratilsin: birinchisi, fazilatlarni shakllantirish; ikkinchisi, bilim olish va dunyoqarashni kengaytirish.

– Millat rivojiga hissa qo'shish uchun qanday illatlardan qutulishim va qanday fazilatlarga ega bo'lishim kerak? Ushbu savolga javob berish uchun yutuq va kamchiliklaringiz ro'yxatini tuzing.

– Romanda ko'tarilgan muammolardan kelib chiqib oilangizni farovonlashtirish rejasini yoki xalq hayotini yaxshilash uchun takliflaringizni ishlab chiqing.

– "O'zbek millatiga xos fazilat va kamchiliklar ("Kecha va kunduz" romani misolida)" mavzusida esse yozing.

– "Kecha va kunduz" romanining obrazlar tizimi" mavzusida tezis yozing.

– "O'zbekiston iqtisodiyotini orqaga tortayotgan omillar yoxud milliy mintelaketimizga xos illatlar" mavzusida taqdimot tayyorlang.

Demak, "Blum taksonomiyasi" metodi o'quvchining asar matnini to'laqonli tushunib tahlil qilishini, asar mazmunini shaxsiy tajribalar bilan integratsiya qilgan holda anglashini, chiqarilgan xulosalar asosida o'z shaxsiyati va borliqni baholay olishini, shu asosda yangilik yaratishini ta'minlaydi. "Blum taksonomiyasi" metodidan yuqorida keltirilgan shakl va mazmunda foydalanish adabiyot fanini o'qitishdan ko'zlangan **maqsa-**
dga erishish, o'quvchilarda o'qib tushunish, tandqidiy tafakkur, kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishda samaralidir.

Xulosa qilib aytanda, adabiyot o'qituvchisi "Blum taksonomiyasi" metodidan unumli foydalana olsa, adabiy ta'lim sifatini oshirishga erishadi. Metod samara berishi uchun pedagog matn bilan ishlashi, dalillarga asoslanib fikrlashga qaratilgan topshiriqlar tayyorlay olishi kerak. Shuningdek, o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish, asarni ontologik tahlil qilishga xizmat qiluvchi savollar tuzish mahoratini oshirish ustida ishlashi, baholash va yaratish ko'nikmalarini shakllantirish uchun kreativ yechimlar o'ylab topishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot o'qitish metodikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T: ToshDO'TAU, 2020. – 161 b.

2. Mirzayeva Z. O'quvchilarning ehtiyojini hisobga olish adabiy ta'lim taraqqiyotining muhim faktori sifatida. // Xalq ta'limi – 2019. 4-son

3. Mustafa Altun, Shohidahon Nurmatova. A Comprehensive Review of Bloom's Taxonomy Integration to Enhancing Novice EFL Educators' Pedagogical Impact // Arab World English Journal (AWEJ) Volume 14. Number 3 September 2023 Pp.380-388 DOI: <https://dx.doi.org/10.24093/awej/vol14no3.24>

4. Xusanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. –T.: Innovatsiya ziyo, 2022. – 400 b.

⁵ Bloom's taxonomy// Learning theories. Valamis. <https://www.valamis.com/hub/blooms-taxonomy>

Bosh muharrir:

Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o'rinbosari;

Mas'ul kotib:

Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:

Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY'ATI:

Xilola UMAROVA, Risboy JO'RAYEV, Xolboy IBRAGIMOV, G'ayrat SHOUMAROV, Ulug'bek INOYATOV, Oynisa MUSURMONOVA, Shukurullo MARDONOV, Saidaxbor BULATOV, Ulfat MAHKAMOV, Barno ABDULLAYEVA, Dilyara SHARIPOVA, Lola MO'MINOVA, Maqsudjon YULDASHEV, Mirodiljon BARATOV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA'MUROV, Yashin ISMANDIYAROV, Sharibboy ERGASHEV, Alisher UMAROV, Shaxnoza XALILOVA, Muhayyo UMARALIYEVA

JAMOATCHILIK KENGASHI:

Sobitxon TURG'UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Kamola RISKULOVA, Islom ZOKIROV

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko'chasi, 30-uy.

E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52
t.me/xalq_talimi_jurnali. http://t.me/xalq_talimi_jurnali.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e'lon qilingan maqolalardan olingan matnlar "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro'yxatiga kiritilgan.

"TAFAKKUR NASHRIYOTI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko'chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog'oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.

Shartli b.t. 12,0. Adadi ____ nusxa. – buyurtma.

Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas'ul – Isakulov Rustam Mamirovich

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar <https://rustxt.ru/antiplagiat> sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© "Xalq ta'limi" jurnali, 2024.